Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 5-noyabr, № 232 (9403) Payşanba

Saytimizga ötiş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ÖZBEKISTON PREZIDENTI TOJIKISTON PARLAMENTI MAJLISI MILLIY RAISINI QABUL QILDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni mamlakatimizga rasmiy taşrif bilan kelgan Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi Rustami Emomalini qabul qildi.



Uçraşuv avvalida Majlisi milliy Raisi davlatimiz rahbariga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Muloqot çoğida Özbekiston – Tojikiston döstlik, yaxşi qöşniçilik, strategik şeriklik va ittifoqçilik munosabatlarini, jumladan, ikki mamlakat parlamentlari hamkorligi doirasida yanada rivojlantirişning dolzarb masalalari körib çiqildi.

Barça yönalişlardagi hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Özaro savdo va yuk taşiş hajmlari ortib bormoqda. Sanoat, quriliş, energetika, qişloq xöjaligi, elektrotexnika va boşqa sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oşirilmoqda. Qöşma Investitsiya kompaniyasi samarali faoliyat yuritmoqda.

Poytaxtlar va hududlar örtasida töğridan-töğri aloqalarni rağbatlantiriş, madaniy-gumanitar, ta'lim va turizm sohalaridagi almaşinuvlarni kengaytiriş muhimligi ta'kidlandi.

Oliy darajada erişilgan kelişuvlar va qöşma taşabbuslarni ilgari surişda qonunçilik organlarining rolini oşiriş, bu borada parlamentlararo komissiyalar, döstlik guruhlari hamda sohaviy qömitalar faoliyatini faollaştirişga alohida e'tibor qaratildi.

Uçraşuv yakunida Özbekiston yetakçisi Rustami Emomalini ikki mamlakat örtasidagi strategik şeriklik va ittifoqçilik munosabatlarini mustahkamlaşdagi katta xizmatlari, parlamentlararo muloqotni kengaytiriş borasidagi samarali faoliyati uçun davlatimizning yuksak mukofoti – "Fidokorona xizmatlari uçun" ordeni bilan taqdirladi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

BUXORODA ULKAN ÖZGARIŞLAR SARI DADIL QADAMLAR

Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatiga taşrifi doirasida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş masalalari yuzasidan yiğiliş ötkazdi.

Buxoro asrlar davomida Şarq sivilizatsiyasi, ilm-fan, yuksak madaniyat va noyob me'morçilik öçoği sifatida umuminsoniy tamaddun tarixida alohida maqomga ega bölgan kentdir. Bugungi kunda uşbu tabarruk zaminda hududning ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimini kompleks rivojlantiriş, aholi turmuş farovonligini izçil yuksaltiriş hamda turizm industriyasini sifat jihatdan yangi bosqiçga olib çiqişga qaratilgan keng kölamli strategik dasturlar muvaffaqiyatli amalga oşirilmoqda.

Zamonaviy va yuqori texnologik infratuzilmani şakllantiriş, xizmat körsatişni xalqaro andozalar darajasiga kötariş orqali Buxoroning global sayyohlik makonidagi raqobatbardoşligi va nufuzini tubdan mustahkamlaş maqsad qilingan.

– Buxoro iqtisodiyotiga, odamlarning kundalik hayotiga ijobiy özgarişlar olib kiradigan 30 milliard dollarlik yangi taşabbuslar bilan kelganmiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Yiğilişda uşbu taşabbuslar samarasi, avvalo, aholi uçun zarur infratuzilma va daromad manbalarida körinişi lozimligi ta'kidlandi. Şu nuqtai nazardan, içimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini rivojlantiriş, yöllarni yangilaş, sanoat va xizmat körsatişda yangi loyihalarni amalga oşiriş rejalari körib çiqildi.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki iştirokida suv va kanalizatsiya ta'minotini yaxşilaş böyiça 385 million dollarlik loyiha amalga oşirilmoqda. Uning ikkinçi bosqiçiga yana 248 million dollar jalb etiladi. Natijada 1,7 million aholining suv ta'minoti yaxşilanadi, 775 ming kişi kanalizatsiya tarmoğiga ulanadi. Markazlaşgan içimlik suvi bilan qamrov hozirgi 80 foizdan 95 foizga yetkaziladi. Prezidentimiz, ayniqsa, suvni kutayotgan 55 ta mahalla böyiça aniq muddatlarni belgilaş va işlarni tezlaştirişni topşirdi.

Viloyatning transport aloqalarini kengaytirişga qaratilgan loyihalar ham muhokama qilindi. Joriy yilda hududdan ötuvçi "A-380" avtomobil yölini rekonstruksiyalaş yakunlanadi. Kelasi yil "M-37" yölining viloyat hududidagi 69 kilometrini yangilaş boşlanib, loyiha doirasida Buxoro şahri atrofida 4,5 kilometrlik aylanma yöl quriladi.

(Davomi 2-betda).

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH VA OSOYIŞTALIKNI TA'MINLAŞNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Prezident Şavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni huquqbuzarliklar profilaktikasini zamon talablari asosida takomillaştiriş yuzasidan taqdimot bilan tanişdi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlaş, huquqbuzarliklarning oldini oliş va mahallalarda barqaror ijtimoiy muhitni şakllantiriş böyiça tizimli işlar amalga oşirilmoqda.

Jumladan, hududlarda xavfsizlik infratuzilmasi kengaytirilib, 263 mingta tanib oluvçi kamera, 70 mingta zamonaviy domofon va 22 mingta taşviş tugmasi örnatildi. Ijtimoiy profilaktika çoralari orqali 2,1 million nafar şaxsning muammolari manzilli hal etildi.

Natijada kriminogen vaziyati eng oğir bölgan 809 ta mahallaning 701 tasi uşbu toifadan çiqarildi. Qariyb 4,4 mingta mahallalar "yaşil" toifada qolmoqda.

Şu bilan birga, jamiyatdagi özgarişlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanişi, kiberjinoyatçilik va boşqa zamonaviy tahdidlar huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini yangi bosqiçga olib çiqişni taqozo etmoqda.

Xususan, 2014-yilda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi töğrisida"gi Qonunga ötgan davrda 20 dan ortiq özgartirişlar kiritilgan bölsa-da, uning ayrim normalari bugungi talablarga javob bermay qolgan.

(Davomi 2-betda).

ÖZBEKISTON DEHQON VA FERMERLARI HAMDA BARÇA QIŞLOQ XÖJALIGI XODIMLARIGA

Qadrli vatandoşlar!

Hurmatli dehqon va fermerlar, klaster xodimlari, dala mehnatkaşlari!

Siz, azizlarni Yangi Özbekiston tarixida ilk bor 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etib, rekord natijaga erişganingiz bilan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, sizlarning fidokorona mehnatingiz, jasorat va matonatingiz bilan qölga kiritilgan bu tarixiy ğalaba butun xalqimizning ğalabasi. Bu – paxtaçilik sohasidagi Yangi Özbekiston mö'jizasi.

Bu yutuqning ijodkori sizlar – azamat dehqon va fermerlarimiz, mohir agronom, suvçi, mexanizator, olim va mutaxassislarimiz, klaster xodimlari, desak, adolatli fikrni aytgan bölamiz.

Fursatdan foydalanib, barçangizga öz nomimdan, butun xalqimiz nomidan çuqur minnatdorlik bildirib, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman. Sizlar bilan butun xalqimiz faxrlanadi, ğururlanadi.

Ayniqsa, iqlim özgarişi bilan boğliq qiyinçiliklar yanada kuçaygan joriy yilda paxta xomaşyosini yoğin-soçinli kunlarga qoldirmasdan, sohaning içki imkoniyatlari hisobidan yuksak sifat bilan yiğib-terib olganingiz tahsinga munosibdir.

Bu haqda gapirganda, beixtiyor paxtaçilik el-yurtimizga manfaat emas, balki azob-uqubat va oxir-oqibatda "özbek işi" degan quruq tuhmat olib kelgan oğir kunlarni eslaymiz. "Kim edigu kim böldik?" degan fikr albatta xayolimizdan ötadi.

Çindan ham, sobiq sovet davrida, xususan, 1980-yillarda respublikamizda paxta yetiştiriş uçun qariyb 2 million gektar yer ajratilgan, örtaça hosildorlik esa 30 sentnerdan oşmas, natijada dehqonning kosasi oqarmas edi.

Mustaqillikning dastlabki davrida, xususan, 2000-yilga kelib 1,4 million gektar yerga çigit ekilib, Özbekiston böyiça jami 3 million tonna paxta terib olingan.

Biz keyingi yillarda tarmoqni öta oğir ahvoldan olib çiqiş uçun, avvalo, çigit ekiladigan maydonlarni 38 foizga qisqartirib, paxta monopoliyasiga barham berdik. Öqituvçi, talaba va öquvçilarni, byudjet taşkilotlari xodimlarini dala işlariga jalb etişga çek qöydik. Sohani ilm-fan yutuqlari, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida rivojlantirişga ustuvor ahamiyat qaratdik. Boşda bunga işonmasdan, şubha bilan qaraganlar ham böldi. Ammo tanlagan yölimiz naqadar töğri ekanini bugun hayotning özi, bu yilgi natijalarimiz yaqqol tasdiqlamoqda.

Ötgan davrda paxtaçilikda hosildorlik 2,7 karra oşib, 21 sentnerdan 56 sentnerga yetgani bu borada qanday katta yuksaliş yölini bosib ötganimizni körsatib turibdi.

Suv tejovçi texnologiyalarni keng joriy etganimiz hisobidan suv sarfi 1990-yillarga nisbatan 2 karra kamayib, har bir kubometr suv evaziga olinayotgan hosil miqdori oşib borayotgani biz uçun ğoyat muhimdir.

Bu yil ekiş sxemalari özgartirilib, köçatlar soni 2-3 karra oşirilgani, kösak qurti va gerbitsidga çidamli yangi biotexnologik navlar joylaştirilgani ham özini oqladi. Bu özgarişlarning amaliy samarasini qariyb 400 ming gektar yerda örtaça hosildorlik 70 sentnerga yetgani, salkam 70 ming gektarda 100-110 sentnergaça hosil olingani misolida yaqqol köriş mumkin.

(Davomi 2-betda).

ÖZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TAŞRIF BILAN QOZOĞISTONDA BÖLADI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev Qozoğiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev va Iordaniya Hoşimiylar Podşohligi Podşohi Abdulla II taklifiga binoan 5-6-noyabr kunlari amaliy taşrif bilan Ostona şahrida böladi.

Davlatimiz rahbari sun'iy intellekt sohasida xavfsizlikni ta'minlaş, uning terroristik va ekstremistik maqsadlarda işlatilişiga qarşi kurašiş, yangi texnologik xatar hamda tahdidlarga javob qaytarişda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaş masalalariga bağişlangan Markaziy Osiyo davlatlari yetakçilarining Aqaba jarayoni doirasidagi uçraşuvida iştirok etadi.

Aqaba jarayoni 2015-yilda Podşoh Abdulla II tomonidan ilgari surilgan xalqaro taşabbus bölib, terrorizm va ekstremizmga qarşi kurašişda xalqaro hamkorlikni mustahkamlaş hamda xavfsizlikni ta'minlaş sohasida tajriba almaşiş va qöşma sa'y-harakatlarni muvofiqlaştirişga qaratilgan.

ÖzA.

DRONLARDAN FOYDALANIŞNING YAGONA TARTIB-QOIDALARI BELGILANADI

Prezident Şavkat Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlarida uçuvçisiz aviatsiya tizimlaridan foydalanişni kengaytiriş va sohani tartibga solişga doir taqdimot bilan tanişdi.

Bugungi kunda dunyoda uçuvçisiz aviatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib, qişloq xöjaligi, sanoat, transport, şaharsozlik va xizmat körsatiş kabi köplab sohalarda keng qöllanilmoqda. Dronlardan foydalaniş işlab çiqariş samaradorligini oşiriş, xarajatlarni qisqartiriş, resurslarni tejaş va yangi iş örinlarini yaratişda muhim omilga aylanmoqda.

Xususan, qişloq xöjaligida ekin maydonlarini kuzatiş, ularga işlov beriş va hosildorlikni monitoring qiliş, sanoatda işlab çiqariş jarayonlari va infratuzilma obyektlarining holatini nazorat qiliş, şaharlarda transport oqimini kuzatiş va köçalarda harakatni taşkil etişda uşbu texnologiyalardan foydalaniş katta imkoniyatlar oçadi.

(Davomi 2-betda).

YANGI ÖZBEKISTON QIYOFASI XITOY KITOBXONI NIGOHIDA

Global özgarişlar, xalqaro munosabatlardagi yangi tendensiyalar va geosiyosiy raqobat kuçayib borayotgan bugungi şaroitda har bir davlatning xalqaro maydondagi mavqei nafaqat iqtisodiy salohiyati, balki öz taraqqiyot modelini, siyosiy qaraşlari va strategik maqsadlarini qay darajada aniq namoyon eta olişi bilan ham belgilanadi. Bunda mamlakatda amalga oşirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad va natijalarini xalqaro hamjamiyatga yetkaziş, ularning boşqa xalqlar hamda ekspert doiralari tomonidan töğri anglanişini ta'minlaş muhim vazifalaridan biridir.

Nuqtai nazar

Şu ma'noda, Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning "Özbekiston: barqaror taraqqiyot va farovonlik sari" kitobi xitoy tilida çop etilişi va uning taqdimoti Pekin şahrida ötkazilişi oddiy naşriyotçilikka oid voqea doirasidan ança keng ahamiyatga ega. Bu Yangi Özbekistonda amalga oşirilayotgan islohotlar falsafasi, mamlakatimizning taraqqiyot tajribasi, taşqi siyosatdagi ustuvor tamoyillar va xalqaro hamkorlikka yondaşuvini Xitoy jamoatçiligiga davlatimiz rahbarining öz fikrlari orqali yetkaziş imkonini bergan muhim siyosiy-ma'rifiy voqeadir.

Taqdimotning ahamiyati, avvalo, uning Xitoydagi siyosiy, ilmiy va ekspert doiralari tomonidan qanday qabul qilinganida namoyon böldi. Tadbirda Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qömitasining mas'ul rahbarlari, davlat idoralari, nufuzli ilmiy-tahliliy muassasalar, Şanxay hamkorlik taşkiloti, diplomatik korpus va ekspert hamjamiyati vakillari qatnaşdi. Taqdimotga 300 ga yaqin iştirokçilarning taşrif buyurgani, ular orasida



Pekindan taşqari hududlardan maxsus kelgan mehmonlar ham bölgani, şuningdek, Xitoyning yuqori martabali siyosiy vakillari, nufuzli tahlil markazlari rahbarlari, olimlar va ekspertlar tomonidan bildirilgan fikrlar Yangi Özbekiston tajribasiga qiziqişning mazmun va kölamini namoyon etdi.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 5-noyabr

ÖZBEKISTON DEHQON VA FERMERLARI HAMDA BARÇA QIŞLOQ XÖJALIGI XODIMLARIGA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Heç şubhasiz, bunday yutuqlar qatorida 1 mingga yaqin fermer xöjaliklari va klasterlar örtaça 100 sentnerlik va undan ham yuqori marralarni zabt etganlari alohida örin tutadi. Bu haqda söz yuritganda, 4 mingdan ziyod fermerlarimiz hosildorlikni örtaça 60 – 70 sentnerdan, 2,5 ming nafari esa 80 sentnerdan oşirgani, ayniqsa, Paxtakor tumanidagi Anorboy Eşmatov va Jarqörğon tumanidagi Uluğbek Söpiyev har gektar yerdan 110 sentnerdan hosil olişganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Mingbuloq tumanidagi “Burgut polvon”, Navbahor tumanidagi “Yahyo bobo”, Boyovut tumanidagi “Boyovutlik Humoyun”, Bekobod tumanidagi “Otabek Zilola”, Oqqörğon tumanidagi “Murod”, Gurlan tumanidagi “Ixlosbek”, Hazorasp tumanidagi “Yakub Annazar” hamda Tuproqqal’a tumanidagi “Gulçaros Munisa” fermer xöjaliklari ham hosildorlikni 100 sentnerdan oşirdilar.

Jizzax, Xorazm, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida hosildorlik 60 sentnerdan köproqni taşkil etgani ham paxtaçiligimiz tarixiga zarhal harflar bilan yoziladi.

Öta oğir ekologik hududda hosildorlikni ötgan yillarga nisbatan 10 – 15 sentnerga oşirib, 400 ming tonnadan ortiq xirmon bunyod etgan Qoraqalpoğiston paxtakorlarini çin qalbdan qutlaşdan mamnunman.

Hosildorlikni 70 sentnerdan oşirgan Mirzaobod va Xovos tumanlari, 55 – 70 sentnerga yetkazgan Mirzaçöl, Paxtakor, Qiziltepa, Uçqörğon va Peşku, Jalaquduq, Vobkent, Jondor, Romitan, Olot, Arnasoy, Töraqörğon, Uyçi, Boğot, Xonqa, Hazorasp, Jarqörğon va Yangibozor, Amudaryo, Baliqçi, Marhamat, Paxtaobod, Döstlik, Kökdala, Navbahor, Mingbuloq, Çortoq, Paxtaçi, Kattaqörğon, Qumqörğon, Boyovut, Oqqörğon, Böka, Bekobod, Piskent, Yuqori Çirçiq, Bağdod, Quva, Gurlan va Qöşköpir tumanlari mehnatkaşlari boşqalarga namuna böldilar.

Eng katta – 110 ming tonnalik xirmon barpo etgan Koson, şuningdek, Mirişkor (105 ming), Kasbi (95 ming), Nişon (90 ming), Mirzaçöl (85 ming), Mirzaobod (81 ming), Döstlik (77 ming), Amudaryo (76 ming), Oqoltin (72 ming), Pastdarğom (71 ming), Paxtakor (68 ming), Mingbuloq va Quyi Çirçiq (62 ming tonnadan), Boyovut va Jondor (60 ming tonnadan), Bekobod (58 ming), Gurlan va Romitan (57 ming tonnadan), Vobkent va Kattaqörğon (56 ming tonnadan), Xonqa (52 ming tonna) kabi tumanlar ham ilğorlar safidan munosib joy egalladi.

Biz oqila, taşkilotçi ayollarimiz rahbarlik qilayotgan Olot va Böston tumanlarida hosildorlik örtaça 55 – 60 sentnerga yetkazilganini alohida qadrlaymiz.

Bu yil yetiştirilgan hosilning 85 foizi 3 mingdan ortiq paxta teriş maşinalari yordamida 30 – 35 kunda terib olingani, mexanizatsiyalaştiriş darajasi Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 100 foizga yetkazilgani, boşqa hududlarimiz ham şu marraga yaqinlaşib kelayotgani odamlarni oğir mehnatdan xalos etiş yölidagi islohotlarimizning muhim natijasidir.

Paxtaçilik kengaşi taşkil etilgani, olimlarimiz tomonidan noan’anaviy texnologiyalar qöllanilgani hamda raqamlaştiriş, dronlardan foydalaniş orqali sarf-xarajat ikki barobar kamaytirilgani ham bu yilgi yutuqlarni ta’minlaşda asosiy omil böldi. Şular qatorida davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilgani, tölov intizomi yaxşilanib, subsidiyalaş takomillaştirilgani, suğurta tizimi yaratilgani, bir söz bilan aytganda, tarmoqda tizim butunlay yangilangani yuqori natijalarga erişişda salmoqli rol öynadi.

Şu örinda yana bir muhim raqamga e’tiboringizni qaratmoqçiman: bu yil fermerlarimiz paxtadan 13 – 14 trillion söm sof foyda olişi kutilmoqda. Şu asosda ular yil böyi qilgan maşaqqatli mehnati evaziga munosib daromad topişi, odamlarimizning hayoti yanada obod va farovon bölişi tabiiydir.

Albatta, ana şunday ulkan natijalarni ta’minlaşda qişloq xöjaligi rivojiga qaratayotgan doimiy e’tiborimiz, dehqon va fermerlar, klasterlar, umuman, dalada işlayotgan har bir insonning öz mehnatidan manfaatdorligi, ertangi kunga işonçi hal qiluvçi ahamiyat kasb etmoqda.

Muhtaram yurtdoşlar!

Qişloq xöjaligi sohasidagi strategik yölimizni amalga oşirişda biz, avvalo, sizlarga, agrotarmoqda faoliyat körsatayotgan 3,5 million nafardan ziyod mirişkorlarga tayanamiz. Sizlar uçun yana qanday qöşimça şaroit va imkoniyatlar yaratiş kerak bölsa, barçasini ta’minlab berişga tayyormiz.

Qişloq xöjaligining yuksak va barqaror taraqqiyoti – butun mamlakatimizning yuksak va barqaror taraqqiyotida ustuvor örin tutadigan omil.

Yaqinda Toşkentda bölib ötgan Xalqaro paxta kuniga bağişlangan anjumanda 30 dan ziyod mamlakatlardan kelgan olim va mutaxassislar biz erişayotgan yutuqlarni e’tirof etib, Butunjahon paxtaçilik markazini aynan Özbekistonda taşkil etiş böyiça taklif bildirişgani albatta bejiz emas.

Kelgusi yilda serhosil uruğlik navlaridan foydalaniş, agrodron orqali işlov beriş, suv va energiya tejovçi texnologiyalar, sun’iy intellektni qöllaş böyiça sizlarga yanada köproq şaroitlar yaratib, paxtadan örtaça hosildorlikni 65 – 70 sentnerga yetkazişni maqsad qilib qöydik. Ana şunday dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli ado etişda fermerlarimiz va klaster xodimlari olimlar, muhandis va mutaxassislar bilan birgalikda yanada katta kuç-ğayrat bilan mehnat qiladilar deb işonaman.

“Öz” degan ezgu ğoyamiz zamirida mujassam bölgan öz işimiz, öz sözimiz, öz ğalabamizga işonç ruhi bilan olğa qarab borişdan heç qaçon töxtamaymiz!

Özbekiston paxtaçiligida yangi tarix yaratayotgan siz, azizlarni bugungi zafar bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barçangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga tinçlik, baxt va farovonlik tilayman.

Himmatingizga, qudratingizga balli, zahmatkaş va fidoyi yurtdoşlarim!

Şavkat MIRZIYOYEV,
Özbekiston Respublikasi Prezidenti

BUXORODA ULKAN ÖZGARIŞLAR SARI DADIL QADAMLAR

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Samarqand – Buxoro yönalişida sement-beton qoplamali pullik avtomobil yöli va tezyurar poyezd uçun yangi temir yöl liniyasini barpo etiş rejalaştirilgan. Yangi avtomobil yöli safar vaqtini hozirgi beş soatdan bir yarim soatgaça qisqartirişi kutilmoqda. Mas’ullarga har ikki loyihaning master-rejasini yakunlaş va hamkorlar bilan muzokaralarni boşlaş topşirildi.

Buxoroda 300 million dollarlik yangi xalqaro aeroport qurilmoqda. U bir vaqtning özida 20 ta samolyot va 1 200 nafar yölovçiga xizmat körsatiş imkoniga ega böladi. Aeroport şahar markazi bilan 24 kilometrlik avtomobil yöli orqali boğlanadi, avtobuslar uçun 5,5 kilometrlik BRT yölagi barpo etiladi. Buxoroga Turkiyaning “Pegasus” aviakompaniyasi töğridan-töğri reyslarni yölga qöymoqda. Kelasi yil Malayziya, Indoneziya, Kuvayt, Misr va Bahrayn bilan ham aviaqatnovlarni boşlaş belgilandi.

Yiğilişda yangi yöllar va aeroport bilan birga viloyat içida harakatlaniş qulayligini oşiriş zarurligi körsatib ötildi. Joriy yilda yöllar holatini yaxşilaş uçun 900 milliard söm ajratilgan bölsa-da, 2 ming kilometr içki yöl va 266 ta köprik ta’mirtalab. Ularni yangilaş va ekspluatatsiya qilişga xususiy investitsiyalarni jalb etiş, asosiy sayyohlik yönalişlarini boğlaydigan muqobil pulli yöllar quriş imkoniyatlarini örganiş topşirildi.

Jamoat transporti yetarliça rivojlanmagani sabab aholining 80 foizi kundalik qatnovlarda yengil avtomobildan foydalanmoqda. Şu bois viloyatga qöşimça 120 ta avtobus keltiriş jadallaştiriladi. Aeroport va temir yöl vokzallari atrofida xizmat körsatiş sifatini oşiriş, kökalamzorlaştirişda esa Buxoroning iqlimi va tarixiy qiyofasiga mos yagona yondaşuvni qöllaş vazifalari belgilandi.

Turizm viloyat iqtisodiyotini östirişning muhim yönalişlaridan biridir. Joriy yilda Buxoroga 3,5 million xorijlik sayyoh kelişi kutilmoqda. Mazkur körsatkiçni ikki baravar oşiriş, ularning viloyatda qoliş muddatini uzaytiriş va turizm mavsumini yilning boşqa oylariga ham kengaytiriş zarurligi qayd etildi.

Buning uçun Eski şahar, Yetti pir, Çor Bakr, Poykent, Varaxşa va Vardonze kabi tarixiy majmualar yagona turizm konsepsiyasi asosida boğlanadi. Gulçorboğ mahallasida 50 gektar maydonda turizm markazi, Jalol Ikromiy mahallasida xalqaro tadbirlarga möljallangan kongress-xoll hamda “Hilton” va “Holiday Inn” brendlari ostida mehmonxonalar qurilmoqda.

Şaharning sakkizta markaziy köçasi yangilanib, oltita xiyobon barpo etiladi. Buxoro tumanida esa 1 ming gektar maydonda 500 million dollarlik turizm klasterini taşkil etiş rejalaştirilgan.

Prezidentimiz yangi obyektlar bilan birga xizmatlar mazmunini ham boyitiş zarurligiga e’tibor qaratdi. Buxoroda turizm mavsumi tört oydan olti oyga uzaygan, kelasi yil esa 30 ga yaqin xalqaro tadbirlar ötkaziş rejalaştirilmoqda. Biroq viloyatda beş yulduzli mehmonxona yöq, yirik savdo va köngiloçar maskanlar yetarli emas, mavjud xizmatlarning asosiy qismi Buxoro şahrida jamlangan.

Mas’ullarga xorijlik sayyohlar sonini 7 millionga yetkaziş böyiça oyma-oy reja tayyorlaş topşirildi. Unda yangi turpaketlar, tadbirlar, tumanlarda oçiladigan obyektlar va sayyohlar jalb qilinadigan bozorlar aniq körsatilişi lozim.

Yiğilişda viloyat iqtisodiyoti bu yil ilk bor 100 trillion sömlik marradan oşişi, ösiş 10,1 foizni taşkil etişi ta’kidlandi. Sörovda buxoroliklarning 98 foizi hayot sifati yaxşilanganini bildirgan, tadbirkorlarning 83 foizi esa kelgusi uç yilga ijobiy kutilma bilan qaramoqda.

Şu bilan birga, iqtisodiy ösiş tabiiy resurslar sanoati va qişloq xöjaligiga boğliq bölib qolayotir. Ularning iqtisodiyotdagi uluşi 43 foiz, xizmatlar sohasining uluşi esa ön yilda atigi 33 foizdan 36 foizga oşgan.

Prezidentimiz iqtisodiyotni diversifikatsiya qiliş, xomaşyoni çuqur qayta işlaş va har bir tumanning ösiş nuqtalarini aniqlaşni talab etdi. Sanoat, xizmat körsatiş va qişloq xöjaligidagi körsatkiçlarni 1,5 baravar oşiriş böyiça aniq rejalar işlab çiqiladi.

Sanoat sohasida Buxoroning xomaşyo, energiya resurslari va tadbirkorlik salohiyatini birlaştirib, uç yilda 28 milliard dollarlik loyihalarni amalga oşiriş imkoniyati borligi ta’kidlandi. Şundan 17 milliard dollari neft-gaz va kimyo sanoatiga töğri keladi. Buxoro neftni qayta işlaş zavodi quvvatlarini oşirişga nufuzli texnologik kompaniyalarni jalb etiş, Kogon tumanida esa neft-kimyo ilmiy-sanoat klasterini taşkil qiliş vazifasi qöyildi.

Energetikada qisqa muddat içida qariyb 2 ming megavatt quvvatli elektr stansiyalari işga tuşirilgan. Kelgusi uç yilda yana 3,1 ming megavattli şamol elektr stansiyalari va 1 ming megavattli energiya saqlaş tizimlari quriladi. Yangi quvvatlar bilan bir vaqtda uzatiş va taqsimlaş infratuzilmasini rivojlantiriş, viloyatda 745 kilometr elektr tarmoğini barpo etiş rejalaştirilgan.

Yengil sanoatda xalqaro brendlar bilan hamkorlik tajribasidan foydalanib, Buxoroda işlab çiqariladigan töqimaçilik mahsulotlarini taşqi bozorlarga kengroq olib çiqiş vazifasi belgilandi. Kelasi yil sohada kamida 1 milliard dollarlik loyihalarni va eksportni ikki baravar oşiriş közda tutilgan.

Ijtimoiy sohadagi işlar körib çiqilar ekan, xususiy boğça va maktablarni köpaytiriş, maktab bitiruvçilarining 50 foizini texnikumlarga jalb etiş, texnikumlarni yirik tadbirkorlar va investorlar bilan boğlaş masalalari muhokama qilindi. Viloyatdagi önta davlat va xususiy oliy ta’lim muassasasida dual ta’lim qamrovini ikki baravar oşiriş vazifasi qöyildi.

Joriy yilda 29 ta şifoxona va poliklinikani yangilaş işlari amalga oşirildi. Mamlakatimiz yetakçisi tibbiy xizmat sifatini, ayniqsa, birlamçi böğin faoliyatini yaxşilaş, sohaga investitsiya jalb etiş va xorijda tajriba orttirgan vatandoşlar imkoniyatidan foydalaniş zarurligini ta’kidladi.

Yiğilişda tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotlari hamda kelgusi yilga möljallangan rejalari tinglandi.

Prezidentimiz öz hududini kompleks rivojlantirişda Olot tumani hokimi Nargiza Nematova alohida jonbozlik körsatayotganini e’tirof etib, davlat va boşqaruv idoralaridagi köp yillik samarali mehnati, yangi iş örinlarini yaratiş orqali aholi farovonligini ta’minlaş yölidagi xizmatlari uçun uni “Fidokorona xizmatlari uçun” ordeni bilan mukofotlaşga qaror qilganini e’lon qildi.

Xulosa örnida aytiş joizki, davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatiga amaliy taşrifi hudud tarixida yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniş davrini boşlab beradi. E’lon qilingan yirik strategik taşabbuslar şunçaki raqamlar majmui emas, balki viloyat aholisining turmuş farovonligini tubdan yuksaltiriş, infratuzilmani xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qiliş va Buxoroning umuminsoniy tamaddun markazi sifatidagi nufuzini global miqyosda qayta tiklaşga qaratilgan konseptual dasturdir.

Sanoatni diversifikatsiya qiliş, yirik energetika quvvatlarini işga tuşiriş, transport-logistika geografiyasini kengaytiriş va turizm industriyasini tubdan isloh qiliş orqali Buxoro yaqin yillarda nafaqat Özbekiston, balki butun Şarq olamining eng raqobatbardoş va jozibador megapolislaridan biriga aylanadi. Taşrif doirasida belgilab berilgan vazifalarning izçil ijrosi hududning iqtisodiy qudratini karrasiga oşiriş bilan bir qatorda har bir fuqaro va tadbirkorning ertangi kunga bölgan işonçini yangi bosqiçga olib çiqişi şubhasizdir.

Şu bilan Özbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyatiga taşrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
ÖzA maxsus muxbirlari.

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDININ OLISH VA OSOYIŞTALIKNI TA’MINLAŞNING SAMARALI MEXANIZMLARI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Şu munosabat bilan taqdimotda mazkur qonunni yangi tahrirda qabul qiliş böyiça işlab çiqilgan takliflar körib çiqildi.

Davlatimiz rahbari yangi qonun huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin çora körişga asoslangan yondaşuvdan xavf-xatarlarni oldindan aniqlaş va bartaraf etişga qaratilgan proaktiv profilaktika modeliga ötişni ta’minlaşi zarurligini ta’kidladi.

Bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan 14 ta davlat idorasi şuğullanayotgan bölsa-da, ularning vazifalari ayrim hollarda takrorlanmoqda, vakolatlari aniq çegaralanmagan. Taqdimotda profilaktika subyektlari doirasini yana 7 taga kengaytiriş taklif qilindi.

Prezidentimiz mazkur taklifning maqsadga muvofiqligini aniq asoslaş, eng avvalo, har bir idoraning vazifasi, vakolati va javobgarligini belgilaş, ular örtasida samarali hamkorlikni ta’minlaş muhimligini qayd etdi.

Şuningdek, yangi tahrirdagi qonun loyihasida Huquqbuzarliklar profilaktikasi komissiyasining vakolatlarini qonun darajasida belgilaş nazarda tutilmoqda. Bunda davlat organlari faoliyatini muvofiqlaştiriş, profilaktika çoralarining samaradorligini baholaş va monitoring qiliş mexanizmlarini mustahkamlaşga alohida e’tibor qaratilgan.

Qonun loyihasida ilk bor profilaktikaning yangi yönalişlarini belgilaş, xususan, giyohvandlik vositalari bilan boğliq jinoyatlar, kiberjinoyatçilik, uyuşgan jinoyatçilik, “yaşirin iqtisodiyot” va korrupsiyaga qarşi kuraşişda preventiv çoralarni kuçaytiriş nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, ijtimoiy va viktimologik profilaktika mexanizmlarini takomillaştiriş, ta’lim muassasalarini profilaktika tadbirlari bilan keng qamrab oliş, jinoyatdan jabrlangan fuqarolarning xavfsizligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlaş böyiça yangi normalar ilgari surildi.

Bunda jinoyatdan jabrlanganlar va guvohlarning hayoti, soğligi hamda mol-mulkiga tahdid yuzaga kelganda ularning xavfsizligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlaş, jinoyatçilikka qarşi kuraşişda kömaklaşgan fuqarolarni rağbatlantiriş közda tutilmoqda. Şu bilan birga, huquqbuzarliklarni keltirib çiqaruvçi sabablarni bartaraf etiş yuzasidan majburiy profilaktik körsatma berişning huquqiy asoslarini belgilaş taklif qilinmoqda.

Taqdimotda kriminogen vaziyatni baholaş va huquqbuzarliklarning oldini oliş çoralari samaradorligini nazorat qiliş tizimini takomillaştiriş masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, hozirgi baholaş usullari asosan statistik ma’lumotlarga tayanadi. Jinoyatçilikka ta’sir qiluvçi ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarliça tahlil etilmaydi, mavjud axborot tizimlari özaro töliq integratsiyalaşmagan.

Şu bois kriminogen vaziyatni baholaşning yangi modelini joriy etiş taklif qilindi. Unga köra, ilk bor aholining xavfsizlik hissi va yaşirin jinoyatçilik körsatkiçlarini ham inobatga oladigan “kriminogen barqarorlik indeksi”ni şakllantiriş közda tutilmoqda.

Buning uçun davlat idoralarining axborot resurslarini birlaştiradigan yagona kriminogen ma’lumotlar platformasini işga tuşiriş, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida jinoyatçilik xavflarini tahlil qiliş va prognozlaş, kriminogen xaritalarni şakllantiriş rejalaştirilmoqda.

Mazkur mexanizmlar orqali hudud va mahallalardagi kriminogen vaziyat muntazam baholanib, xavf darajasiga qarab manzilli profilaktika çoralari belgilanadi. Mas’ul idoralar faoliyati natijadorlik körsatkiçlari asosida baholanadi, muammolarni hal etiş yuzasidan ta’sirçan nazorat örnatiladi.

Davlatimiz rahbari huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat huquqni muhofaza qiluvçi organlarning vazifasi bölib qolmasdan, barça mas’ul idoralar, mahalla va jamoatçilikning hamjihatlikdagi faoliyatiga asoslanişi kerakligini ta’kidladi.

Har bir mahallada xavfsiz muhit yaratiş, huquqbuzarliklarni keltirib çiqarayotgan omillarni öz vaqtida aniqlaş va bartaraf etiş, fuqarolar osoyiştaligini işonçli ta’minlaş ustuvor vazifa ekani körsatib ötildi.

Taqdimot yakunida mutasaddilarga qonun loyihasini bildirilgan fikr-mulohazalar asosida takomillaştiriş, profilaktika subyektlarining vazifa va vakolatlarini aniq belgilaş, raqamli tahlil va monitoring mexanizmlarini joriy qiliş böyiça topşiriqlar berildi. Kriminogen vaziyatni baholaşning yangi modelini joriy etişni nazarda tutuvçi farmon imzolandi.

DRONLARDAN FOYDALANIŞNING YAGONA TARTIB-QOIDALARI BELGILANADI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Ma’lumotlarga köra, global dron bozori yiliga 10 – 15 foiz sur’at bilan ösib bormoqda. Uşbu texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etiş mamlakatimizda ham iqtisodiy ösişni jadallaştiriş, yuqori malakali mutaxassislarga talabni oşiriş va yangi texnologik yönalişlarni rivojlantirişga xizmat qilişi mumkin.

Şu munosabat bilan taqdimotda Özbekistonda uçuvçisiz aviatsiya tizimlaridan fuqarolik maqsadlarida foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş, sohada tadbirkorlik va investitsiya faoliyati uçun qulay şaroitlar yaratişga qaratilgan takliflar körib çiqildi.

Şu bilan birga, uçuvçisiz aviatsiyadan foydalanişni kengaytiriş parvozlar xavfsizligi va fuqarolarning şaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlaydigan zamonaviy tartibga soliş mexanizmlarini işlab çiqişni talab etadi.

Bugungi kunda dronlardan foydalanişning yagona qoidalari, ularni hisobga oliş va parvozlarni muvofiqlaştiriş, yetkazilgan zararni qoplaş hamda suğurtalaş mexanizmlarini takomillaştiriş zarurati mavjud.

Şu maqsadda uçuvçisiz aviatsiya vositalari haqidagi ma’lumotlarni birlaştiruvçi yagona raqamli axborot tizimini şakllantiriş, parvoz hududlarini aniq belgilaş va ulardan foydalaniş tartiblarini joriy etiş böyiça takliflar bildirildi.

Taqdimotda uşbu yangi yönaliş uçun malakali kadrlar tayyorlaş va innovatsion ekotizimni rivojlantiriş masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Xususan, kelgusi öquv yilidan Transport universitetida uçuvçisiz aviatsiya tizimlari böyiça mutaxassislar tayyorlaşni yölga qöyiş, ta’limni amaliy maşğulotlar bilan uyğunlaştiriş, yoşlarning zamonaviy aviatsiya texnologiyalariga qiziqişini qöllab-quvvatlaş rejalaştirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga ilğor xorijiy tajriba asosida uçuvçisiz aviatsiya tizimlarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etiş, mahalliy işlab çiqarişni rivojlantiriş, tadbirkorlar uçun qulay şaroitlar yaratiş yuzasidan qonunçilikni takomillaştirişga doir takliflar tayyorlaş böyiça topşiriqlar berildi.

ÖzA.

Buyuk Britaniyadagi “ExCeL London” markazida bölib ötayotgan “World Travel Market – 2026” xalqaro körgazmasida Özbekiston öz milliy stendi bilan iştirok etib, yurtimizning boy turistik salohiyatini jahon hamjamiyatiga namoyiş qilmoqda.

Uçraşuv



HAMKORLIK MAZMUNAN YANADA BOYIMOQDA

Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi Rustami Emomali boşçiligidagi delegatsiya bilan uçraşdi.

Suhbat çoğida Özbekiston va Tojikiston örtasida parlamentlararo aloqalarni rivojlantiriş masalalari muhokama qilindi. Şuningdek, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlaş, qonun ijodkorligi va parlament nazorati yönalişlarida tajriba almaşiş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, özaro işonçi va muntazam muloqoti tufayli tarixan yaqin bölgan özbek hamda tojik xalqlari örtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi. Xususan, şu yil 26-27-mart kunlari Tojikiston Prezidentining Özbekistonga amalga oşirgan davlat taşrifi hamda Oliy davlatlararo kengaşning birinçi yiğilişi ötkazilişi ikki tomonlama hamkorlikning yangi istiqbollarini belgilab berdi.

Rustami Emomali ötgan yili Toşkentda ötkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi hamda şu yil 4 – 6-sentyabr kunlari Samarqandda bölib ötgan Yoş parlament a'zolarining XII global konferensiyasi yuqori saviyada taşkil etilganini alohida aytib ötdi. Uşbu xalqaro tadbirlar yakunida qabul qilingan deklaratsiyalar parlamentlararo muloqotni rivojlantiriş va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaşga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Öz navbatida, Senat Raisi Tanzila Norboyeva ham yaqinda Duşanbe şahrida ötkazilgan Markaziy Osiyo davlatlarining IV parlamentlararo forumi yuqori saviyada taşkil etilgani, uning doirasida uyuştirilgan muhokamalar umumiy mintaqaviy masalalar yuzasidan parlamentlar pozitsiyalarini yaqinlaştirişi, özaro tajriba almaşiş va hamkorlikning yangi yönalişlarini belgilaşga xizmat qilişini aytdi.

Uçraşuvda savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytiriş, sanoat kooperatsiyasini rivojlantiriş, transport hamda çegaraoldi infratuzilmasini takomillaştiriş, Toşkent va Duşanbe şaharlari örtasida töğridan-töğri hamkorlikni yölga qöyiş masalalari yuzasidan fikr almaşildi.

Şuningdek, madaniy-gumanitar va ijtimoiy sohalardagi hamkorlikni kengaytiriş, ta'lim, soğliqni saqlaş hamda aholini ijtimoiy qöllab-quvvatlaş yönalişlarida tajriba almaşiş muhimligi ham qayd etildi.

Uçraşuv yakunida Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy örtasida 2027-2028-yillarga möljallangan hamkorlik böyiça "Yöl xaritasi" imzolandi.

Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi Senatning Faxriy mehmonlar kitobida yozuv qoldirdi.

Taşrif

DÖSTLIK VA QARDOŞLIK RIŞTALARI

Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi Rustami Emomali boşçiligidagi delegatsiya yurtimizga taşrif buyurdi. Mehmonlarni Toşkent xalqaro aeroportida Oliy Majlis Senati Raisining birinçi örinbosari Sodiq Safoyev kutib oldi.

Delegatsiya a'zolari dastlab Yangi Özbekiston boğiga borib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qöydi. Şundan söng Yangi Toşkent şahrini barpo etiş direksiyasi faoliyati bilan yaqindan tanişdi. Mamlakatimizda amalga oşirilayotgan yirik şaharsozlik loyihasi, yangi şaharni bunyod qiliş konsepsiyasi, zamonaviy transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantiriş, yaşil hududlar hamda ijtimoiy obyektlarni quriş borasidagi işlar mehmonlarda katta qiziqiş uyğotdi. Yangi Özbekiston universitetining faoliyati, ta'lim jarayonini taşkil etiş tizimi, zamonaviy ta'lim infratuzilmasini şakllantiriş borasidagi işlar delegatsiya e'tiboridan çetda qolmadi.

Şuningdek, yuqori martabali mehmonlar Özbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga ham taşrif buyurdi.

Aytiş kerakki, davlatimiz rahbari Şavkat Mirziyoyev taşabbusi bilan oçilgan Islom sivilizatsiyasi markazi yurtimizning boy ilmiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylaş, çuqur örganiş hamda uni jahon hamjamiyatiga keng namoyon etişga xizmat qiluvçi yirik tarixiy-ma'rifiy majmua hisoblanadi.

Mehmonlar markazning ilmiy-ma'rifiy faoliyati, noyob tarixiy eksponatlari hamda ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qöşgan beqiyos hissasini aks ettiruvçi ekspozitsiyalar bilan yaqindan tanişdi.

Tojikiston parlamenti delegatsiyasi markazning boy tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylaş, islom sivilizatsiyasining jahon miqyosidagi örni va ahamiyatini keng tarğib etişdagi örnini e'tirof etdi.

Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi markazning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

«Xalq sözi».

YANGI ÖZBEKISTON QIYOFASI XITOY KITOBXONI NIGOHIDA

1 Kitobning Xitoydagi nufuzli "Jenmin" naşriyoti tomonidan çop qilingani ham e'tiborga molik. Uni tayyorlaş jarayonida Xitoy millatlar universiteti olimlarining iştirok etgani esa naşrning ilmiy va madaniy ahamiyatini yanada oşirdi. Odatda bunday jarayonga bir yarim-ikki yil vaqt talab etiladi. Bu safar esa kelişuvdan naşrgaça bölgan bosqiç atigi sakkiz oyda yakunlangan. Yana bir muhim jihat: amaldagi xorijiy davlat rahbarining asarini naşr qiliş Xitoy bosma naşrlar amaliyotida keng tarqalgan holat emas. Demak, mazkur loyihaga körsatilgan e'tibor kitobning nafaqat ma'rifiy, balki siyosiy ahamiyati ham yuqori baholanganidan dalolat beradi.

Prezidentimizning kitobiga nisbatan bunday yuksak darajadagi e'tibor zamirida, şubhasiz, Özbekistondagi özgarişlarning kölami va mazmunini anglaşga bölgan qiziqiş mujassam. Zero, bugun mamlakatimiz mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaş, global muammolar yeçimiga hissa qöşiş va inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qöyişga qaratilgan yondaşuvlari bilan e'tirofga sazovor bölmoqda.

Inson qadri va farovonligi – islohotlar markazida

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev rahbarligida Özbekistonda amalga oşirilayotgan islohotlarning asosiy xususiyati şundaki, ular davlat va jamiyat hayotining barça sohasini qamrab olgan holda, inson qadri va manfaatlarini ustuvor mezon sifatida belgilaydi. Bu yondaşuv 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan "inson – jamiyat – davlat" tamoyilida ham özining huquqiy ifodasini topdi. Mazkur tamoyil şunçaki konstitutsiyaviy qoida emas. U davlat boşqaruvi, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy himoya va jamiyat hayotining boşqa sohalarida ustuvorliklar qanday belgilanişi kerakligini körsatuvçi muhim mezondir.

Sönggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallaştiriş, tadbirkorlik muhitini yaxşilaş, investitsiyalarni jalb etiş va işlab çiqarişni diversifikatsiya qilişga qaratilgan islohotlar ta'lim, tibbiyot, bandlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi özgarişlar bilan uyğun olib borilmoqda. Bunda iqtisodiy ösişning özi emas, balki uning aholi turmuş darajasiga ta'siri, yangi iş örinlari yaratiş, kambağallikni qisqartiriş va inson kapitali sifatini oşirişdagi samarasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbirda bir neça marotaba ta'kidlanişiça, Özbekistonda amalga oşirilayotgan özgarişlar inson qadrini ta'minlaş, aholi farovonligini yuksaltiriş va adolatli jamiyat qurişga yönaltirilgani bilan ahamiyatli. Asarda uşbu vazifalarning siyosiy mazmuni davlat rahbarining nutqlari va taşabbuslari orqali oçib berilgan. Şu bois kitob xitoylik kitobxonlarga Yangi Özbekistonning maqsadlari, islohotlar falsafasi va mamlakat tanlagan taraqqiyot yöli tamoyillarini bevosita anglaş imkonini beradi.

Şuningdek, Özbekistonda röyobga çiqarilayotgan keng kölamli islohotlar, mamlakatning mustaqil taraqqiyot maqsadlari va tinçlikparvar taşqi siyosati Xitoy ekspertlari uçun muhim tadqiqot manbai ekani aytib ötildi. Prezident Şavkat Mirziyoyev kitobining XKP Markaziy qömitasining yuqori lavozimli vakillari iştirokida, muhim siyosiy tadbirlar bilan bir vaqtda taqdim etilgani Özbekistonning Xitoy taşqi siyosatida alohida örin tutişini körsatadi.

Ekspertlar ikki mamlakat örtasidagi hamkorlikni faqat iqtisodiy aloqalar bilan çeklab qöymasdan, tahlil markazlari örtasidagi ilmiy muloqotni ham kengaytiriş zarurligini qayd etdi. Xususan, mahalla institutini takomillaştiriş, yoşlar siyosati va mintaqaviy xavfsizlik masalalari böyiça qöşma tadqiqotlar ötkaziş taklif qilindi. Şuningdek, mahalla tizimi samaradorligini oşirişda Xitoyning "tinçlik va osoyiştalik hududi" dasturi tajribasini örganiş, aholi farovonligi, jamiyat barqarorligi va özini özi boşqariş organlari bilan hamjihatlikni ta'minlaş masalalariga e'tibor qaratildi.

Siyosiy işonç – strategik şeriklikning asosi

Özbekiston va Xitoy munosabatlarining bugungi darajasi, avvalo, ikki davlat rahbarlari – Özbekiston Prezidenti Şavkat Mirziyoyev va XXR Raisi Si Szinpin örtasida şakllangan oçiq muloqot, özaro işonç hamda uzoq muddatli hamkorlikka bölgan qat'iy siyosiy iroda bilan boğliq. Aynan şu omillar ikki tomonlama aloqalarni yangi bosqiçga olib çiqiş, ularning qamrovini kengaytiriş va strategik mazmun bilan boyitiş imkonini bermoqda.

2024-yil yanvar oyida Prezidentimizning Xitoyga davlat taşrifi davomida ikki mamlakat munosabatlari yangi davrda har tomonlama strategik şeriklik darajasiga kötarildi. Bu qaror siyosiy aloqalarning yangi maqomini belgilaş bilan birga, iqtisodiyot, sanoat, transport, energetika, ta'lim va gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytiriş uçun mustahkam asos yaratdi.

Oliy darajadagi siyosiy muloqot keyingi yillarda ham izçil davom etdi. 2025-yil sentyabr oyida Pekinda, 2026-yil 31-avgust kuni esa Bişkek şahrida Şanxay hamkorlik taşkiloti sammiti doirasida ötkazilgan uçraşuvlarda ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yönalişlari va erişilgan kelişuvlarning amaliy ijrosi muhokama qilindi.

Bişkekdagi uçraşuvda XXR Raisi Si Szinpin strategik şeriklikning yangi "oltin ön yilligi"ni boşlaşga tayyorligini ta'kidlagani ikki mamlakat munosabatlarining kelgusi istiqboliga işonçni ifoda etadi.

Joriy yil 17-oktyabr kuni Prezident Şavkat Mirziyoyevning Xitoy Davlat kengaşi Boş vaziri Li Syan bilan uçraşuvi ham siyosiy muloqotning amaliy hamkorlik bilan uzviy boğliqligini yana bir bor namoyon qildi. Muzokaralarda erişilgan kelişuvlarni hayotga tatbiq etiş, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytiriş va qöşma loyihalarni ilgari suriş masalalari muhokama qilingani, elektron tijorat, iqlim va media sohalarida hamkorlikka oid hujjatlarning imzolanişi şeriklik kun tartibi tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.



transport yölaklarini rivojlantirişda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, ayniqsa, Şanxay hamkorlik taşkiloti doirasidagi muloqotlar mintaqaviy va global masalalar yuzasidan umumiy yondaşuvlarni şakllantirişda muhim maydon bölib xizmat qilmoqda.

Özbekistonning ŞHT asosçi davlatlaridan biri sifatida taşkilot faoliyatini şakllantiriş va rivojlantirişga qöşgan hissasi ham e'tiborga molik. Xususan, 2022-yil sentyabrdagi Samarqand sammitini ŞHTning yangi arxitekturasi şakllanişida muhim bosqiç sifatida baholaş mumkin. Kitobda Özbekistonning taşkilotdagi iştirokiga bağişlangan maxsus bob mavjudligi esa mamlakatning "Şanxay ruhi" tamoyillariga sodiqligini ifodalaydi.

Şu örinda Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning 2026-yil 1-sentyabrda Bişkekda ötkazilgan sammitda ilgari surgan siyosiy hamkorlik, xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya, transport boğliqligi, iqlim, gumanitar aloqalar, xalq diplomatiyasi va turizmga oid taşabbuslari keng e'tirof etilayotganini ta'kidlaş joiz. Xususan,

> *"Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning "Özbekiston: barqaror taraqqiyot va farovonlik sari" kitobi xitoy tilida çop etilişi va uning taqdimoti Pekin şahrida ötkazilişi oddiy naşriyotçilikka oid voqea doirasidan ança keng ahamiyatga ega. Bu Yangi Özbekistonda amalga oşirilayotgan islohotlar falsafasi, mamlakatimizning taraqqiyot tajribasi, taşqi siyosatdagi ustuvor tamoyillar va xalqaro hamkorlikka yondaşuvini Xitoy jamoatçiligiga davlatimiz rahbarining öz fikrlari orqali yetkaziş imkonini bergan muhim siyosiy-ma'rifiy voqeadir."*

Şu jihatdan yangi naşr ikki xalqni yanada yaqinlaştiriş, davlatlar örtasidagi döstlikning ijtimoiy asoslarini kengaytiriş va boşqaruv tajribasi almaşinuviga yangi mazmun bağişlaşga xizmat qiladi.

Oçiqlik, yaxşi qöşniçilik va umumiy taraqqiyot

Yangi Özbekistonning taraqqiyot yölini taşqi siyosatdagi özgarişlardan ayri holda tasavvur etib bölmaydi. Sönggi yillarda Markaziy Osiyoda oçiq muloqot, yaxşi qöşniçilik va özaro işonç muhitini mustahkamlaşga qaratilgan siyosat mintaqa davlatlari örtasidagi munosabatlarga yangi mazmun bağişladi.

Davlatimiz rahbari taşabbusi bilan bir qator murakkab masalalarni özaro manfaatlarni hisobga olgan holda hal etiş, çegara, transport, savdo, suv resurslaridan foydalaniş va gumanitar aloqalar böyiça hamkorlikni kengaytiriş uçun imkoniyatlar paydo böldi. Bu jarayon mintaqada barqarorlikni mustahkamlaş bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uçun ham yangi şaroit yaratmoqda. Zero, barqarorlik faqat siyosiy kelişuvlar yoki xavfsizlik çoralari bilan ta'minlanmaydi. Uning mustahkam asosi iqtisodiy ösiş, aholi farovonligi, iş örinlari, özaro işonç va hamkorlikdir. Şu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy salohiyatini röyobga çiqariş, uning xalqaro transport va savdo tizimlaridagi örnini mustahkamlaş strategik ahamiyat kasb etadi.

2025-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uçraşuvlarini "Markaziy Osiyo hamjamiyati" strategik formatiga aylantiriş va Ozarbayjonni uşbu jarayonlarga tölaqonli iştirokçi sifatida jalb etiş taşabbusining ilgari surilgani mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqişga qaratilgan muhim qadam böldi.

Pekindagi muloqotlarda ham Özbekistonning mintaqaviy va global jarayonlardagi örniga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlaş örinli. Xitoyning "Bir makon, bir yöl" taşabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport-logistika va savdo sohasidagi maqsadlari örtasida ham özaro uyğunlik mavjud. Şu bois mintaqaviy boğliqlikni kuçaytiriş nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqa iqtisodiyoti uçun strategik ahamiyat kasb etadi.

Oçiq taşqi siyosat, faol mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy diplomatiya mamlakatimizning xalq-aro mavqeini mustahkamlaş, investitsiyalarni jalb qiliş, eksportni diversifikatsiyalaş hamda Prezident Şavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati natijasida Özbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib, mamlakat Markaziy Osiyoda yirik xalqaro kuçlar e'tiborini özige jalb etayotgan muhim markazga aylanmoqda, deyişmoqda ekspertlar.

Pekindagi uçraşuvlarda Xitoyning yetakçi tahlil markazlari va davlat muassasalari vakillari ham iqtisodiy hamkorlikni çuqurlaştirişga qiziqiş bildirdi. Biroq bugungi vazifa mavjud savdo va investitsiya aloqalarini kengaytiriş bilangina çeklanmaydi. Ularni mahalliy işlab çiqariş, texnologiyalar transferi, eksport salohiyatini oşiriş va zamonaviy kadrlar tayyorlaş bilan boğlaş muhim. Ana şunda strategik şeriklikning iqtisodiy samarasi nafaqat umumiy körsatkiçlarda, balki mamlakatning texnologik va sanoat salohiyatida ham öz aksini topadi.

Özaro munosabatlarning ma'naviy poydevori

Özbekiston va Xitoy munosabatlarining tarixiy ildizlari Buyuk Ipak yöli davriga borib taqaladi. Asrlar davomida ikki xalq örtasida savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat sohalarida aloqalar şakllangan. Bugun uşbu tarixiy yaqinlik zamonaviy hamkorlikning muhim ma'naviy poydevoriga aylanmoqda.

Prezidentimiz kitobining xitoy tilida naşr qilinişi ana şu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. U Xitoy kitobxoniga Özbekiston haqidagi axborotni uçinçi manbalar talqini orqali emas, balki davlatimiz rahbarining öz qaraşlari, dasturiy nutqlari va strategik yondaşuvlari orqali anglaş imkonini beradi.

Bu jarayonda 2019-yilda Pekinda xitoylik ekspertlar tomonidan tayyorlangan "Prezident Mirziyoyev – Özbekistondagi islohotlar davrining me'mori" kitobining taqdimoti bilan muayyan ma'naviy boğliqlik bor. Öşanda Xitoy mutaxassislari Özbekistondagi özgarişlarni öz tahlillari orqali yoritgan bölsa, bu safar xitoylik öquvçilar mamlakatimiz rahbarining fikrlari va taraqqiyotga doir yondaşuvlari bilan bevosita taniş imkoniga ega bölmoqda. Bu ikki voqea özaro anglaşuvning yangi bosqiçini ifoda etadi.

Yangi naşr taqdimoti özbek – xitoy gumanitar aloqalari rivojidagi yirik voqea – 29-oktyabrda boşlangan Xitoydagi Özbekiston madaniyati kunlari ötkazilgani ham çuqur ramziy ma'noga ega. Madaniy dasturlar va Prezident asarlari bilan taniş bir-birini töldiradi: biri özbek milliy madaniyatining boy xazinasini namoyon etsa, ikkinçisi mamlakatning bugungi intilişlari va unda röy berayotgan özgariş mazmunini anglaşga yordam beradi.

Kitobda Prezident Şavkat Mirziyoyevning nutqlari, murojaatlari va mualliflik maqolalari, jumladan, BMT, ŞHT va "Markaziy Osiyo – Xitoy" sammiti minbarlaridan yangragan çiqişlari tizimli ravişda jamlangan. Uşbu materiallar xitoylik olimlar, tadqiqotçilar hamda keng kitobxonlar ommasi uçun Özbekistonning islohotlari, davlat boşqaruvi tajribasi va xalqaro hamkorlikka doir qaraşlarini örganişda qimmatli manba bölib xizmat qiliş, şubhasiz.

Taqdimotda bildirilgan fikrlardan anglaşiladiki, Xitoyning siyosiy va ekspert doiralari Özbekiston tajribasini bir neça muhim yönalişda örganişga qiziqiş bildirmoqda. Bular – inson manfaatlarini ustuvor qöygan davlat boşqaruvi, milliy şaroitga mos modernizatsiya modeli, oçiq taşqi siyosat, Markaziy Osiyoda yaxşi qöşniçilik muhitini şakllantiriş va xalqaro hamkorlikni amaliy natijalar bilan boyitiş.

2027-yil 2-yanvarda Özbekiston va Xitoy örtasida diplomatik munosabatlar örnatilganiga 35 yil töladi. Bu sana ikki davlat hamkorligi natijalarini sarhisob qiliş bilan birga, uning yangi bosqiçdagi ustuvor vazifalarini belgilaş uçun ham qulay fursatdir.

Pekindagi uçraşuvlar davomida Xitoyning yetakçi ilmiy-tahliliy muassasalari Özbekistonning tegişli markazlari bilan hamkorlikni çuqurlaştirişga qiziqiş bildirdi. Mahalla instituti, yoşlar siyosati, kambağallikni qisqartiriş, raqamlaştiriş, qişloq hududlarini rivojlantiriş, davlat boşqaruvi islohotlari va mintaqaviy xavfsizlik böyiça qöşma tadqiqotlar ötkaziş takliflari ilgari surildi.

Xususan, Xitoy Zamonaviy xalqaro munosabatlar akademiyasi Özbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bilan mahalla va yoşlar siyosati böyiça hamkorlik qilişdan manfaatdor ekanini bildirdi. Xitoy Xalqaro muammolar akademiyasi sun'iy intellekt, "yaşil" taraqqiyot va transport boğliqligi böyiça qöşma tadqiqotlarni taklif qildi. Davlat kengaşi huzuridagi Taraqqiyot tadqiqotlari markazi suv xavfsizligi, Orol fojiasi oqibatlari, muzliklarning erişi va çuçuk suv tanqisligi masalalariga e'tibor qaratdi.

Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi huzuridagi institut vakillari esa davlat xizmatçilari va deputatlar uçun stajirovkalar taşkil etiş, ikki mamlakat tahlil markazlari örtasida doimiy muloqot mexanizmini yaratiş, ilmiy va tahliliy materiallarni özaro tarjima qiliş böyiça takliflar bildirdi.

Bunday taşabbuslar strategik şeriklikning yangi bosqiçi faqat savdo va investitsiya hajmini oşiriş bilan emas, balki bilim, texnologiya, boşqaruv tajribasi va inson kapitali sohalarida hamkorlikni çuqurlaştiriş bilan ham belgilanişini körsatadi.

Bu jarayonda parlamentlararo aloqalarning ham özige xos örni bor. Xitoy tomonining Oliy Majlis va Butunxitoy xalq vakillari yiğini örtasidagi munosabatlarni rivojlantiriş, siyosiy partiyalar va qonun çiqaruvçi organlar örtasida tajriba almaşişga qiziqişi parlament diplomatiyasining amaliy ahamiyatini oşiradi. Qonun ijodkorligi, davlat boşqaruvi, mahalliy vakillik organlari faoliyati hamda aholi bilan muloqot mexanizmlari böyiça tajriba almaşiş ikki mamlakat örtasidagi hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitişi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari va jurnalistikaning örni ham bu borada beqiyos. Mamlakatlar haqidagi xolis, işonçli va mazmunli axborot jamoatçilik fikrini şakllantiradi, özaro işonçni mustahkamlaydi. Şu bois Özbekiston va Xitoy media tuzilmalari, jurnalistlari, tahlilçilari va ilmiy-tadqiqot muassasalari örtasidagi aloqalarni kengaytiriş xalqlar örtasidagi özaro anglaşuvga xizmat qiladi.

Raqamlar taraqqiyot kölamini körsatadi, ğoyalar esa uning yönalişini belgilaydi. Prezidentimiz kitobida aks etgan Yangi Özbekistonning taraqqiyot falsafasi Xitoy kitobxoniga mamlakatimizning bugungi qiyofasi, islohotlar mazmuni va kelajak maqsadlarini anglaş imkonini bermoqda. Uning Pekinda katta qiziqiş bilan kutib olingani esa ikki davlat örtasidagi strategik şeriklik siyosiy işonç, iqtisodiy manfaatlar, intellektual muloqot va xalqlar örtasidagi yaqinlikni birlaştirgan yangi bosqiçga kötarilayotganini namoyon etdi.

Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati,
Özbekiston Milliy media assotsiatsiyasi Boşqaruvi raisi.

Jinoyat kodeksiga kiritilgan qöşimçalarga köra, ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boşqa taqiqlangan taşkilotlarda iştirok etiş 5 yildan 10 yilgaça ozodlikdan mahrum qiliş bilan jazolanişi belgilandi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 5-noyabr

SIFATLI QONUN – PUXTA MUHOKAMA MAHSULI

Senat qömitalarida qonunlarning dastlabki muhokamasi – qonun ijodkorligi jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri. Çunki qonunning sifati, hayotiyligi va amaliyotda samarali işlaşi, köp jihatdan, aynan şu bosqiçdagi tahlil, savol-javob hamda takliflarga boğliq.

Senat qömitalarida

Şu nuqtai nazardan, Oliy Majlis Senati qömitalarining keça bölib ötgan yiğilişlarida qator muhim qonunlar muhokama markazida böldi.

Senatning Agrar, suv xöjaligi masalalari va ekologiya qömitasi majlisida “Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Özbekiston Respublikasi milliy qonunçiligini Jahon savdo taşkilotining Sanitariya va fitosanitariya çoralarini qöllaş böyiça Bitimiga muvofiqlaştirişni nazarda tutuvçi qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida”gi qonun muhokama qilindi.

Uşbu qonun bilan ösimliklar karantini sohasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik hamda ijro etuvçi hokimiyat organlarining vakolatlarini aniq belgilaş közda tutilib, Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qömitasining vakolatlari ham kengaytirilmoqda. Jumladan, fitosanitariya xavfini tahlil qiliş, fitosanitariya nazoratida xavflarni boşqarişga asoslangan avtomatlaştirilgan tanlab oliş mexanizmining tartib-taomillarini, karantin ostidagi materiallarni fitosanitar zararsizlantiriş qoidalari va usullarini işlab çiqiş hamda tasdiqlaş kabi vazifalar belgilanmoqda. Bundan taşqari, ösimliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekşiruvlari uslublarini tasdiqlaş, fitosanitar zararsizlantiriş faoliyatini litsenziyalaşga oid talablar va tartiblarni işlab çiqiş böyiça vakolatlar ham mustahkamlanmoqda.

“Davlat boji töğrisida” hamda “Litsenziyalaş, ruxsat beriş va xabardor qiliş tartib-taomillari töğrisida”gi qonunlarga tegişli özgartiriş va qöşimçalar kiritilmoqda. Ularda yuridik şaxslarga fitosanitar zararsizlantiriş faoliyatini amalga oşiriş uçun muayyan muddatga litsenziya beriş, uşbu faoliyat uçun davlat bojini belgilaş, litsenziya nomi va uning kiçik turlarini aniqlaştiriş, şuningdek, faoliyat davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar uçun jarima miqdorlarini belgilaş nazarda tutilgan.

Ta’kidlanganidek, qonunning qabul qilinişi ösimliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunçilikni xalqaro standartlarga muvofiqlaştiriş, fitosanitar zararsizlantiriş faoliyatini takomillaştiriş hamda mahsulotlarning xalqaro savdoda erkin va tösiqlarsiz harakatlanişini ta’minlaşga xizmat qiladi.

Bundan taşqari, xalq deputatlari mahalliy Kengaşlarining agrar, suv xöjaligi va ekologiya masalalari böyiça doimiy komissiyalari a’zolari uçun hududlarda örmonlaştiriş va çöllanişga qarşi kuraşiş işlarini taşkil etiş, çang-tözonlar kötarilişining oldini oliş hamda ekologik barqarorlikni ta’minlaş borasida Kengaşlar oldidagi dolzarb masalalar yuzasidan öquv-seminar ham ötkazildi.

Seminarda doimiy komissiya a’zolarining soha böyiça qonunçilikdagi yangiliklar, özgarişlar yuzasidan bilim va könikmalarini oşirib boriş, sohaga oid qonunlarni körib çiqişda ularning fikrini oliş zarurligi aytib ötildi hamda tegişli vazifalar belgilab olindi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi majlisida farmatsevtika xodimlari kuni belgilanişi munosabati bilan “Özbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kunini belgilaş töğrisida”gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga özgartirişlar kiritiş haqida” hamda “Narkotiklar va kuçli ta’sir qiluvçi moddalar töğrisida”gi qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Senatorlar qayd etganidek, farmatsevtika xodimlari kunini belgilaşga qaratilgan qonun bilan “Özbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kunini belgilaş töğrisida”gi Qonunga kiritilgan özgartirişlar soha xodimlarining mehnatini munosib e’tirof etiş, ularning kasbiy nufuzini oşiriş hamda faoliyatini rağbatlantirişga xizmat qilişi ta’kidlandi.

Muhokama yakunida qonunni ma’qullaş böyiça qömita xulosasini Senat Kengaşiga kiritiş yuzasidan qaror qabul qilindi.

“Narkotiklar va kuçli ta’sir qiluvçi moddalar töğrisida”gi qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuçli ta’sir qiluvçi moddalar muomalasini tartibga soliş, ular ustidan davlat nazoratini kuçaytiriş hamda narkojinoyatlarga qarşi kuraşiş samaradorligini oşirişga qaratilgan. Unda davlat organlarining vakolatlari va özaro hamkorligini belgilaş, giyohvandlikning oldini oliş, unga çalingan şaxslarni davolaş hamda reabilitatsiya qiliş masalalari nazarda tutilmoqda.

Muhokama davomida senatorlar, vazirlik va idoralar vakillari, şuningdek, ekspertlar tomonidan qonunning ayrim normalari yuzasidan bildirilgan taklif va tavsiyalarni atrofliça örganiş, qonunning ayrim normalariga aniqlik kiritiş hamda uni qöşimça körib çiqiş zarurligi ta’kidlandi.

«Xalq sözi».

Munosabat

AHOLI FAROVONLIGIGA QARATILGAN MUHIM TAŞABBUSLAR

Prezidentimizning Buxoro viloyatiga taşrifi hudud uçun yangi imkoniyatlar va iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqiçini boşlab berdi. Viloyatda aholi uçun zarur infratuzilma va daromad manbalarini yaratiş böyiça taşabbuslar aholi farovonligini yanada oşiriş uçun katta imkoniyatlar yaratadi. Şu nuqtai nazardan, içimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini rivojlantiriş, yöllarni yangilaş, sanoat va xizmat körsatişda yangi loyihalarni amalga oşiriş rejalari körib çiqildi.



Taşrif davomida ötkazilgan yiğilişda aynan mana şu masalalarga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Viloyat iqtisodiyotiga 30 milliard dollarlik yangi taşabbuslarning olib kirilişi Buxoro uçun katta imkoniyatlar eşigini oçadi.

Buni raqamlardagi ifodasini köradigan bölsak, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki iştirokida amalga oşirilayotgan loyihalar orqali 1,7 mln. aholining suv ta’minoti yaxşilanadi, 775 ming kişi kanalizatsiya tarmoğiga ulanadi. Eng muhimi, markazlaşgan içimlik suvi bilan ta’minlaş darajasi 95 foizga yetkaziladi. Suv kutayotgan 55 ta mahalla böyiça aniq muddatlar belgilanişi esa odamlarning umidini amaliy natijaga aylantiriş yölidagi muhim qadamdir.

Buxoroning katta boyliklaridan biri, şubhasiz, uning tarixi va turizm salohiyati hisoblanadi. Tarixiy obidalarimizni tomoşa qiliş uçun kelgan sayyohlar sonining ortişi öz-özidan aholi daromadini oşirişga imkon beradi. Buning uçun ularga xizmat körsatiş, dam oliş, xarid qiliş va vaqtini mazmunli ötkaziş imkoniyatlari ham ösib borişi kerak. Şu bois yangi turizm markazlari, mehmonxonalar, kongress-xoll va köngiloçar maskanlar qurilişi juda muhim.

Bugungi kunda Buxoroda 300 mln. dollarlik yangi xalqaro aeroport qurilmoqda. U bir vaqtning özida 20 ta samolyot va 1 200 nafar yölovçiga xizmat körsatiş imkoniga ega böladi. Aeroport şahar markazi bilan 24 kilometrli avtomobil yöli orqali boğlanadi. Buxoroga Turkiyaning “Pegasus” aviakompaniyasi töğridan-töğri reyslarni yölga qöymoqda. Kelasi yil Malayziya, Indoneziya, Kuvayt, Misr va Bahrayn bilan ham aviaqatnovlarni boşlaş böyiça aniq vazifalar belgilab berildi.

Bu esa viloyatning turizm imkoniyatlarini yanada oşirişga muhim turtki beradi. Xorijiy sayyohlar sonini 7 millionga yetkaziş rejasi ham faqat turizm sohasi vakillari uçun emas, oddiy odamlar uçun ham katta imkoniyat beradi. Aholi, ayniqsa, hunarmandlar, oilaviy mehmon uylari va kiçik tadbirkorlik subyektlarining daromadi oşadi. Ya’ni sayyoh kelişi bilan uning iqtisodiy foydasi mahallagaça yetib boradi.

Sanoat borasida ham Buxoroning imkoniyatlari katta. Viloyat iqtisodiyoti bu yil ilk bor 100 trln. sömlik marradan oşişi, ösiş 10,1 foizni taşkil etişi kutilmoqda.

Neft-gaz, kimyo, töqimaçilik va energetika sohalarida rejalaştirilgan yirik loyihalar yangi işlab çiqariş quvvatlarini yaratiş bilan birga köplab iş örinlarini oçadi. Ayniqsa, kelasi yil yengil sanoatda kamida 1 mlrd. dollarlik loyihalarni amalga oşiriş va eksportni ikki baravar oşiriş maqsadi mahalliy işlab çiqaruvçilar uçun muhim imkoniyatdir.

Buxoroda belgilangan loyihalar amalga oşirilişi natijasida nafaqat yangi korxonalar, zamonaviy mehmonxonalar va yöllar paydo böladi, balki ular odamlarning turmuş farovonligi yanada oşişiga xizmat qiladi.

Oybek RAHIMOV,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati.

Aqaba jarayoni:

XAVFSIZLIK YÖLIDAGI SA’Y-HARAKATLAR

6-noyabr kuni Qozoğiston poytaxti Ostona şahrida Markaziy Osiyo davlatlari yetakçilarining Aqaba jarayoni doirasidagi uçraşuvi bölib ötadi. “Sun’iy intellekt sohasida xavfsizlik” mavzuiga bağişlangan mazkur tadbirda Qozoğiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev va Iordaniya Hoşimiylar Podşohligi Podşohi Abdulla II taklifiga binoan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev qatnaşadi. Mazkur uçraşuv sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanişi şaroitida ulardan xavfsiz, mas’uliyatli va samarali foydalaniş masalalarini muhokama qiliş, şuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlaş nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz va jahon

Ma’lumki, bugun sun’iy intellekt insoniyat hayotining deyarli barça sohasiga kirib bormoqda. U iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, sanoat, davlat boşqaruvi va xavfsizlik tizimlarida yangi imkoniyatlar yaratyapti. Ayni vaqtda uşbu texnologiyalardan notöğri foydalaniş, soxta axborot tarqatiş, şaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligiga tajovuz qiliş, kiberjinoyatlar va boşqa xavf-xatarlar bilan boğliq muammolar ham dolzarblaşmoqda. Şu bois sun’iy intellektni rivojlantiriş bilan bir qatorda uning xavfsizligini ta’minlaş, xalqaro miqyosda umumiy yondaşuv va mas’uliyat tamoyillarini şakllantiriş muhim vazifaga aylanayotir.

“Aqaba jarayoni” – 2015-yilda Iordaniya Podşohi Abdulla II taşabbusi bilan yölga qöyilgan xalqaro hamkorlik mexanizmi bölib, uning asosiy maqsadi turli mintaqalar va davlatlar örtasida xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kuçaytiriş, tajriba hamda axborot almaşiş, transmilliy tahdidlarga qarşi birgalikda harakat qilişdan iborat.

Uşbu taşabbus doirasida turli mamlakatlarda xalqaro uçraşuvlar taşkil etib kelinmoqda. Taşabbus Iordaniyaning qirğoqböyidagi Aqaba şahri nomi bilan atalgan. E’tiborlisi, har bir uçraşuv bosqiçi ma’lum bir mintaqa yoki aniq tahdidlar xavfsizligiga qaratilgan. Masalan, muqaddam bölib ötgan uçraşuvlar Ğarbiy Afrika va Sahelda radikalizmga qarşi kuraşiş, Bolqon yarimorolida xavfsizlik, havo hududini muvofiqlaştiriş va terrorçilar tomonidan uçuvçisiz uçiş apparatlaridan foydalanişga qarşi kuraşiş hamda davlatlar suverenitetini qöllab-quvvatlaş kabi masalalarga qaratilgan. Yaqin Şarqdan kelib çiqqaniga qaramay, uçraşuvlar butun dunyo böylab mezbon davlatlar bilan hamkorlikda ötkaziladi. Şu paytgaça bunday tadbirlar Iordaniya, Italiya, Ispaniya, Bolgariya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQŞ va BMT doirasida ötkazilgan.

Forum davlat rahbarlari, vazirlar, razvedka idoralari rahbarlari, xalqaro taşkilotlar (şu jumladan, BMT va Interpol) vakillari va ekspertlarni birlaştiradi. Ostonadagi uçraşuvning özига xos jihati şundaki, unda sun’iy intellekt faqat texnologik taraqqiyot vositasi sifatida emas, balki xalqaro xavfsizlik va davlatlar barqarorligiga ta’sir körsatuvçi muhim omil sifatida körib çiqiladi.

Özbekiston uçun qanday ahamiyatga ega?

Bugun sun’iy intellekt sohasidagi raqobat nafaqat ilğor texnologiyalarni yaratiş, balki ularni xavfsiz boşqariş, milliy manfaatlarni himoyalaş va inson huquqlarini ta’minlaş bilan ham çambarças boğliq. Şu nuqtai nazardan, xalqaro tajriba almaşiş va umumiy yondaşuvlarni işlab çiqiş Özbekiston uçun ham muhimdir.

Aytiş joizki, mamlakatimiz uşbu platformada faol iştirok etadi. 2025-yil oktyabr oyida Özbekiston taşqi işlar vaziri Baxtiyor Saidov boşçiligidagi delegatsiya Rimda xavfsizlikka bağişlangan “Aqaba 2025 jarayoni” uçraşuvida qatnaşdi. Bundan taşqari, respublikamiz mintaqaviy barqarorlikni muhokama qiliş uçun kelajakda Samarqandda uçraşuv ötkazişni taklif qildi.

Aqaba jarayonlari doirasidagi uçraşuvlar mamlakatimizga qator yönalişlarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Birinçidan, sun’iy intellekt xavfsizligi böyiça xalqaro tajriba va ilğor amaliyotlarni örganiş imkoniyati kengayadi. Bu milliy qonunçilik va me’yoriy-huquqiy bazani takomillaştirişda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinçidan, kiberxavfsizlikni mustahkamlaş, şaxsiy ma’lumotlarni himoya qiliş, sun’iy intellektdan foydalanişda şaffoflik va mas’uliyatni ta’minlaş böyiça hamkorlikni rivojlantiriş mumkin.

Uçinçidan, Markaziy Osiyo davlatlari örtasida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasidagi mintaqaviy hamkorlikni kuçaytiriş uçun yangi imkoniyatlar paydo böladi. Çunki bugungi kunda kiberxavflar, axborot xurujlari va raqamli makondagi tahdidlar davlat çegaralarini tan olmaydi. Ularning oldini oliş esa hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni talab etadi. Eng muhimi, Özbekistonning xalqaro maydondagi raqamli taşabbuslari va milliy tajribasini namoyiş qiliş, xorijiy hamkorlar bilan yangi loyihalarni yölga qöyiş imkoniyati kengayadi.

SI sohasidagi ulkan marralar

Tan olişimiz kerakki, mamlakatimizda sun’iy intellekt sohasida jiddiy işlar amalga oşirilmoqda. Bu borada huquqiy asoslar yaratilib, sohani rivojlantirişning uzoq muddatli maqsadlari belgilab olingan. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 14-oktyabrdagi qarori bilan



“Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantiriş strategiyasi” tasdiqlangan. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalaniş, zamonaviy infratuzilmani şakllantiriş, malakali mutaxassislar tayyorlaş hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantiriş asosiy vazifalar sifatida belgilangan. 2030-yilga borib, AT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkaziş böyiça katta marralar olingan. Şu bois jahon bozorida raqobatbardoşlikni oşiriş uçun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi taşkil etildi, AT infratuzilmasiga investitsiya kiritiş uçun qator imtiyozlar berildi. Bu yil Toşkent şahri, Buxoro, Farğona va Toşkent viloyatlarida 4 ta “Data markaz”, 2 ta super-kompyuter va 15 ta oliygohda sun’iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yölga qöyilyapti. Bu tibbiyot, transport, qişloq xöjaligi, geologiya, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarda 100 dan ortiq sun’iy intellekt loyihalarini amalga oşirişga xizmat qiladi. Bugungi kunda minglab iqtidorli yoşlarimiz AT va sun’iy intellekt böyiça izlaniş olib borayotgani quvonarli.

Sun’iy intellektni amaliyotga joriy etişda iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bank-moliya sohasida firibgarlik holatlarini aniqlaş, mijozlarning tölov qobiliyatini baholaş va moliyaviy jarayonlarni prognoz qiliş, soliq va bojxona tizimida xavflarni hamda tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlaş va tibbiy tasvirlarni tahlil etiş, qişloq xöjaligida hosildorlikni prognozlaş va suv resurslaridan samarali foydalaniş kabi yönalişlar ustuvor hisoblanadi.

Davlat xizmatlari tizimida ham sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş kengaymoqda. Bu orqali fuqarolarga xizmat körsatiş sifatini oşiriş, ortiqça byurokratik jarayonlarni qisqartiriş, ma’lumotlarni tezkor tahlil qiliş va boşqaruv qarorlarining samaradorligini oşiriş közda tutilgan. Şuningdek, ta’lim, energetika, transport, logistika, geologiya, sanoat va boşqa tarmoqlarda ham sun’iy intellektga asoslangan yeçimlarni joriy etiş böyiça işlar olib borilmoqda.

Natijalar va istiqboldagi vazifalar

Bugungi kungaça Özbekistonda yuzlab tajriba-sinov loyihalari sun’iy intellektning amaliy foydasini körsatib berdi, tanlangan yöl esa Markaziy Osiyoda raqamli rivojlaniş böyiça yetakçilardan biriga aylaniş imkoniyatini yaratadi.

Özbekistonda işga tuşirişga eng yaqin loyihalardan biri Saudiya Arabistonining “DataVolt” kompaniyasi tomonidan Toşkent “IT Park”ida amalga oşirilmoqda. Kompaniya ilgariroq 2032-yilga borib mamlakatda umumiy quvvati 500 MVt bölgan uçta ma’lumotlar markazini quriş rejasini e’lon qilgan edi. Toşkentdagi obyekt uşbu dasturning bir qismidir. Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki hujjatlariga köra, uning server uskunalari quvvati 12 MVtni, loyiha qiymati esa 250 mln. dollarni taşkil etadi. Bank 78 mln. dollargaça kredit ajratişni ma’qulladi.

Yana bir yirik loyiha Xitoyning “Şanghai LinkWise” kompaniyasini öz içiga oladi. “IT Park” ma’lumotlariga köra, Qoraqalpoğiston Respublikasining Taxiatoş tumanidagi hisoblaş markazi barça bosqiçlar tugallangandan söng 300 MVt quvvatga yetişi kerak.

Amalga oşirilayotgan işlar natijasida Özbekiston sun’iy intellektga tayyorlik böyiça xalqaro reytingda 25 poğona yuqorilab, 62-örinni egallagan. 2030-yilga qadar esa dunyoning eng ilğor 50 ta davlati qatoriga kiriş maqsadi belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarişda yuqori quvvatli hisoblaş tizimlarini rivojlantiriş, ma’lumotlar bazasini şakllantiriş, zamonaviy raqamli infratuzilmani kengaytiriş va malakali kadrlar tayyorlaş muhim örin tutadi.

Rasmiy ma’lumotlarga köra, mamlakatimizda sun’iy intellekt asosida 20 dan ortiq loyihalar amaliyotga joriy etilgan, yana 70 ta loyiha alohida tarmoqlar va yirik korxonalar kesimida işlab çiqilgan. Şubhasiz, sun’iy intellekt kelajak texnologiyasi böliş bilan birga, bugungi kunning ham muhim iqtisodiy va ijtimoiy omiliga aylandi. Uning imkoniyatlaridan samarali foydalaniş mamlakatlarning raqobatbardoşligini oşirsa, xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik jiddiy muammolarni keltirib çiqarişi mumkin. Şu bois sun’iy intellektni rivojlantirişda innovatsiya va xavfsizlik, texnologik taraqqiyot va inson manfaatlari örtasidagi muvozanatni ta’minlaş muhim.

Ostonada ötkaziladigan Aqaba jarayoni doirasidagi uçraşuv ham ana şu maqsadlarga xizmat qilişi bilan ahamiyatlidir. Özbekistonning mazkur muloqotda iştiroki mamlakatimizda amalga oşirilayotgan raqamli islohotlarni xalqaro tajriba bilan boyitiş, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaş va sun’iy intellektdan xavfsiz foydalaniş böyiça yangi taşabbuslarni ilgari suriş uçun muhim imkoniyat bölib xizmat qiladi. Zero, bugungi raqamli dunyoda taraqqiyotning muhim şarti faqat yangi texnologiyalarni yaratiş emas, balki ulardan inson manfaatlari, jamiyat farovonligi va davlat xavfsizligi yölida oqilona foydalanişdir.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toşkent axborot texnologiyalari universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MEHNAT MIGRATSIYASIGA YONDAŞUV TUBDAN ÖZGARADI

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev raisligida mehnat migratsiyasi sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan ötkazilgan yiğiliş mamlakatimizda uşbu yönalişda amalga oşirilayotgan islohotlarning yangi bosqiçini belgilab berdi. Unda sohadagi natijalar bilan birga hal etilişi zarur bölgan masalalar ham oçiq körsatib berildi.



Qayd etiş joizki, sönggi yillarda tartibli mehnat migratsiyasiga yondaşuv tubdan özgardi. Ilgari bu yönalişda 3 ta davlat bilan işlangan bölsa, hozir ularning soni 27 taga yetdi. Çet elda işlayotgan yurtdoşlarimiz soni ön yilda ikki baravar kamaygani holda ular oilalariga yuborayotgan mablağlar tört karra oşdi. Bu odamlarimiz xorijga oddiy işçi emas, malakali kadr sifatida borayotganini körsatadi.

Şu bilan birga, yiğilişda hududlar örtasidagi katta farqqa e’tibor qaratildi. Masalan, xorijda işlayotgan bir kişiga töğri keladigan örtaça oylik pul ötkazmasi Farğonada 1 850 dollar bölsa, Qoraqalpoğiston va Toşkent viloyatida 400 dollarga ham yetmayapti.

Germaniyadan joriy yilda 45 ming mutaxassisga buyurtma kelgani holda atigi 2 ming kişi işga joylaşgani esa asosiy muammo – til bilmaslik ekanini körsatdi. Şu bois kasbga öqitiş bilan til tayyorgarligini birga olib boriş masalasi alohida örin tutadi. Kelasi yili har bir hududda “Intil” markazi tajribasi asosida yagona migratsiya markazi oçiladi, buning uçun har bir viloyatga 8 milliard sömdan ajratiladi. 10 ming kişini kasb va nemis tiliga örgatib, Germaniyada işga joylaştiriş, maktab va texnikumlarga 500 nafar til egasini jalb etiş belgilandi. Har bir viloyatdagi 2-3 tadan texnikumning 15 yilga yirik tadbirkorlar boşqaruviga berilişi yiliga kamida 30 ming nafar tayyor mutaxassis yetiştiriş imkonini beradi.

Qömitamiz uçun, ayniqsa, muhim bölgan masala – xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarning huquqlarini himoya qiliş. Endi muammoga duç kelgan yurtdoşimiz “Onlayn mahalla” platformasida xabar qoldira oladi, zarur hollarda elçining özi uning oldiga borib, muammosiga yeçim topadi.

Xorijdagi iş staji va pensiya huquqini tan oliş ham şu qatorda. Joriy yil Qirğiziston, Ozarbayjon va Turkiya bilan ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Endi Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Boltiqböyi va Bolqon davlatlari bilan ham ana şunday kelişuvlarga erişiş kerak.

Yil boşidan buyon migratsiyadan qaytgan 1 mln. 116 ming kişining tajribasidan foydalaniş, yil yakunigaça ulardan 250 ming kişiga mos iş topiş vazifasi ham ijtimoiy jihatdan muhim.

Yiğilişda xususiy bandlik agentliklari faoliyatida xatolar, korrupsiya va fuqarolarni aldaş holatlari bölgani oçiq aytildi. Şu sababli bu sohani tartibga soluvçi alohida qonun qabul qilingan. Endi uning ijrosini kuzatib boriş, agentliklarning şaffof işlaşi va fuqarolar huquqlari amalda ta’minlanişini parlament nazorati orqali örganiş qömitamiz e’tiborida böladi. Xorijiy davlatlar bilan mehnat staji va ijtimoiy ta’minot böyiça bitimlarni ratifikatsiya qiliş jarayonida ham uşbu yondaşuvga tayanamiz. Zero, har bir yurtdoşimiz qayerda işlamasin, kasbini puxta egallagan, huquqi himoyalangan holda ortida Vatani turganini his qilib yaşaşi kerak.

Nazira MUXTOROVA,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasining Mehnat, soğliqni saqlaş va ijtimoiy masalalar qömitasi raisi.

Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universiteti nufuzli xalqaro “QS Asia university rankings 2027” reytingi natijalariga köra, Osiyo universitetlari orasida 791 – 800 örinlar oraliğidan joy egalladi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1142. 17 558 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga “Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir A. Aliqulovov.
Musahhih S. Islomov.

“Şarq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 00.10 Topşirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6